



# НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ



VOLUME:2 ISSUE:5

## O'QUVCHILAR YO'L QO'YADIGAN NUTQIY XATOLARNING ASOSIY TURLARI, ULARNI ZAMONAVIY TAJRIBALAR YORDAMIIDA TO'G'IRLASH VA OLDINI OLİSH YO'LLARI

**Asadova Shahlo Saidjon qizi**

Guliston davlat universiteti Psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti Boshlang'ich ta'lif yo'nalishi 52-21 guruh talabasi  
shahloasadova2@gmail.com

**Annotatsiya.** Bugungi kunda insonlar nutqidagi parazit so'zlar, to'g'ri jumla qura olmaslik holatlarini ko'ramiz. Yana aytishimiz mumkinki, yuqori sinf o'quvchilarida ham nutqiy kamchiliklar anchagini. Bularning barchasi ular bilan yoshligidan shug'ullanmaslik oqibatida kelib chiqgan holatadir. Mazkur maqolamiz aynan shu mavzuga bag'ishlangan bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi nutqiy kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari haqida fikr yuritamiz.

**Kalit so'zlar:** nutq, boshlang'ich sinf, pedagog, kamchilik

**Abstract.** Today we see parasitic words in people's speech, cases of not being able to construct a correct sentence. We can also say that high school students also have a lot of speech defects. All this is the result of not dealing with them from a young age. This article is dedicated to this topic, and we will think about the speech defects of elementary school students and ways to eliminate them.

**Аннотация:** Сегодня мы видим слова-паразиты в речи людей, случаи неспособности построить правильное предложение. Также можно сказать, что у старшеклассников тоже немало речевых дефектов. Все это результат неприятия их с юных лет. Этой теме посвящена данная статья, и мы подумаем о дефектах речи учащихся младших классов и способах их устранения.

Nutqni bir so'z bilan insonning tashqi go'zalligi desak, aslo mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Nimaga aynan shu ta'rif keltirildi, sababi nutqi ravon va chiroyli bo'lgan inson hammani o'ziga jalb qiladi, u bilan suhbatda bo'lgan insonlar esa ruhan undan madad oladi. Shu boisdan ham qadimgi yunon madaniyatida barcha mashhur faylasuflar notiq bo'lishgan, ular o'z nutqlari bilan insonlarni ortidan ergashtirishgan. Bu darajaga insonlar o'z-o'zidan kelib qolmaydi, buning ortida qancha zahmat, tinimsiz o'qilgan va adadi unutilgan kitoblar bor. Shu boisdan ham nutqi ravon insonlarning fikrlari go'zal va so'zlar takrori ham ancha kam bo'ladi.

Bizning mazkur maqolamiz aynan boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan nutqiy kamchiliklar va ularni bartaraf qilish yo'llari haqida bo'ladi. Hech kimga sir emaski, boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilarga ta'lif berish biroz qiyinroq. Bu jarayon o'qituvchidan katta sabr va matonat talab qiladi. Nutqiy xatoliklarni to'g'irlash va ularni bartaraf etish, har bir o'quvchi bilan alohida ishlash ancha vaqtini talab etadi. Lekin ona tili darslarida bu xatoliklarni to'g'irlash ancha qiyin, chunki o'qituvchining ixtiyorida faqat 45 daqiqa bor, shu boisdan ham hamma uchun tushunarli



# НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ



VOLUME:2 ISSUE:5

bo'lgan metodlar va texnologiyalalar yordamida barcha yo'l qo'yayotgan umumiyligi kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish zarur. Bolalar nutqini takomillashtirish uchun o'qituvchi reja asosida ish olib borishi zarur, shundagina o'quvchida samarali natijani ko'rish mumkin. Eng avvalo o'qituvchi tomonidan o'quvchilar yo'l qo'yayotgan kamchiliklar o'rganiladi, so'ngra esa bartaraf etish yo'llari ishlab chiqaladi.

Nutqiy xatolar ilmiy adabiyotlarda uchta turga ajratiladi:

- Morfologik-uslubiy
- Lug'aviy-uslubiy
- Sintaktik-uslubiy

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida deyarli barcha kamchiliklarni uchratish mumkin, chunki ularning nutqi endi shakllanyapti. Lekin ularda eng ko'p uchraydigan kamchilik bu lug'aviy-uslubiy xatolardir. Buning ajablanarli joyi yo'q, sababi bu yoshdagagi o'quvchilar hali to'liq so'z ma'nolarini anglay olishmaydi, bundan tashqari so'z boyligi ham ko'p emas, shu boisdan bu xatolarga yo'l qo'yishadi.

Lug'aviy-uslubiy kamchiliklarni ham kichik turlarga va ko'rinishlarga ajratish mumkin. Biz hozir aynan boshlang'ich sinflarda uchraydigan ayrim nutqiy xatoliklarni ko'rib o'tamiz:

## •*O'quvchi nutqida ko'p so'z takrorini qo'llashi*

Ushbu xatoning kelib chiqishiga ham ko'p sabablar mavjud. Birinchidan, o'quvchining so'z boyligi juda ham kam bo'lishi, sinonimlardan va olmoshlardan nutqlarida foydalana olmasliklari sababli.

*Birinchi yechim.* Bu jarayonda o'qituvchi ko'proq ona tili darslarida mavzu o'tish chog'ida og'zaki va yozma matnchalar tuzdirishi, agar vaqtida muammo bo'ladigan bo'lsa gaplar tuzdirishi va ularda o'quvchining so'zlarni qo'llash mahoratiga e'tibor qaratishi zarur.

*Ikkinci yechim.* O'quvchilarga ko'proq ertaklar yoki kichik hikoyalari o'qitish, o'qituvchi ularga amaliy tarzda ularni chuntirib berishi zarur bo'ladi. Bu ham o'quvchining nutqiy kamchiliklarini yo'qotishda samarali foyda beradi va ularning so'z boyligini oshiradi, fikrlarini tiniqlashtiradi.

## •*So'zni yanglish ma'noda qo'llash*

Bu jarayonda o'quvchi so'z ma'nolarini yaxshi tushunmaganligi uchun uni o'z o'rnida qo'llay olmaydi, shu boisdan bu xato ularning nutqida kelib chiqadi. Leksik xatolar xilma-xil bo'lgani uchun uni to'g'rilash va tushuntirish usullari ham turlichalar, ammo bunday xatolarning oldini olishning umumiyligi yo'li bor: bu yaxshi nutqiy sharoit



# НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ



VOLUME:2 ISSUE:5

yaratish, o'qilgan va qayta hikoya qilingan matnni til tomondan tahlil qilish, matndagi so'zlarning ma'no qirrasini tushuntirishdir.

Shuningdek, dars jarayonlarida lug'at ustida ishlashga ham ko'proq e'tibor qaratish ijobjiy natija beradi.

Bu kabi xato bolalar nutqida kelib chiqmasligi uchun o'qituvchi va nutqiy muhitdagi barcha kishilar har bir so'zlariga e'tiborli bo'lishlari zarur. Yokida bolalar tomonidan biron so'zning qanday ma'no anglatishi haqida savol berilganida to'liq va tushunarli tarzda tushuntirish keyinchalik bu xatoning oldini oladi. Hozirgi zamonaviy dunyoyimizda esa bolalarga har bir so'zni o'ylab gapirish zamon talabiga aylanib bormoqda. Sababi ular yanada intellektual salohiyati kuchli va tezda o'zlashtirib olishadigan bo'lib shakllanib kelishmoqda.

Morfologik-uslubiy xatolarga so'z shaklini, so'z o'zgartuvchi va so'z yasovchi qo'shimchalarni noto'g'ri qo'llashdan kelib chiqadigan xatolar kiradi.

Bu kabi xatolarni bartaraf etish uchun o'qituvchi har bir qo'shimchaning, ayniqla kelishik va so'z yasovchi qo'shimchalarining, ma'nolarini aniq izohlab berishi va qaysi o'rnlarda qanday ma'nolarni bildirib kelishini tushuntirib berishi lozim bo'ladi. Shu o'rinda ma'nodosh va shakldosh qo'shimchalar haqida ham biroz ma'lumot berib ketish foydadan holi emas.

Sintaktik-uslubiy xatolarga so'z birikmasi va gap tuzishga oid xatolar kiradi. Bunday xatolar juda xilma-xildir.

Ularni bartaraf etish uchun o'qituvchi tomonidan o'quvchilar ko'plab ertak va hikoyalarni qayta hikoyalab berish, badiiy asarlar o'qish, guruh bilan yozma mashqlar olib borish kabi jarayonlarni bajarishlari kerak bo'ladi.

Kompozitsion, mantiqiy va dalillarni noto'g'ri bayon qilish nutqiy xato hisoblanmaydi.

Tipik kompozitsion xatoga insho, hikoya, bayonning tuzilgan rejaga mos kelmasligi, ya'ni voqeа, kuzatishlarni bayon etishda izchillikning buzilishi kiradi. Bu kabi xatolarda o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda, asosan, mantiqiy mashqlar o'tkazishi lozim. „Hikoya" metodi bu kamchilikni tuzatish uchun esa ajoyib yechim hisoblanadi.

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishdagi muvaffaqiyat quyidagi **uch asosiy omilga bog'liq**:

1) so'zga e'tibor bilan munosabatda bo'lish, o'quvchilarning ko'p mutolaa qilishi, atrofidagi kishilarning to'g'ri va ifodali nutqi, ya'ni nutqiy sharoit;

2) bolalarning nutqiy tajribasi qanday tashkil etilishi;

Xulosa qilib shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki, o'quvchilar yo'l qo'yadigan og'zaki va yozma nutqqa xos bo'lgan xatolarni vaqtida bartaraf qilish zarur. O'quvchi

# НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ



VOLUME:2 ISSUE:5

shunchaki og'zaki tarzda xatosini eshitgani bilan u to'g'irlanib qolmaydi. U xatosi ustida o'qituvchi va ota-onal bilan amaliy tarzda ishlasagina bu kamchilikni bartaraf qilishi mumkin. Ayrim o'quvchilar yo'l qo'yadigan xatolarni darslar jarayonida emas, to'garak mashg'ulotlarida ham bartaraf qilish mumkin.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. R.K.Turdiyeva Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy ko'nikmalarini shakllantirish. Darslik. Guliston-2023.
2. Алимова, Ш. А., & Ниёзова, И. Н. (2021). Бизнес-коммуникации в системе управления промышленных структур. Academy,(1 (64)), 55-57.
3. Shamsiya, A. (2023). HR MANAGEMENT AND COACHING IN THE INNOVATIVE ECONOMY AS A METHOD OF BUSINESS MANAGEMENT. Modern Science and Research, 2(10), 712-717.
4. Abidovna, A. S. (2024). FORMATION AND DEVELOPMENT OF CAREER AS PERSONNEL TECHNOLOGY OF HUMAN RESOURCE MANAGEMENT. Gospodarka i Innowacje., (45), 327-332.
5. Abidovna, A. S. (2024). THE IMPACT OF E-ACCOUNTING IN MODERN BUSINESSES.
6. Abidovna, A. S. (2023). Priority directions of analysis of channels of promotion of the main activity of the enterprise and separate communication programs. Gospodarka i Innowacje., 42, 369-374.
7. Алимова, Ш. А., & Халимова, Д. Р. (2021). СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ СТРАТЕГИЙ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. In Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации (pp. 340-344).
8. Abidovna, A. S. (2023). MONTE CARLO MODELING AND ITS PECULIARITIES IN THE IMPLEMENTATION OF MARKETING ANALYSIS IN THE ACTIVITIES OF THE ENTERPRISE. Gospodarka i Innowacje., 42, 375-380.
9. Abidovna, A. S. (2024). THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM.
10. Alimova, S. A., & Khaitov, V. S. (2022). ON THE WAY OF TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN APPLICATION OF ELECTRONIC MARKETING STRATEGIES OPPORTUNITIES. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS, 303.
11. Alimova, S. (2023). THE CONCEPT AND TASKS OF A MODERN MANAGEMENT SYSTEM ENTERPRISE PERSONNEL. Modern Science and Research, 2(12), 1085-1090.
12. Abidovna, A. S. (2023). MODERN TRENDS IN MANAGEMENT STRATEGIES AND THEIR APPLICATION IN COMMERCIAL BANKS. Gospodarka i Innowacje., 41, 326-332.



# НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ



VOLUME:2 ISSUE:5

13. Alimova, S. A., & Nutfullaevna, K. M. (2022). STATE MANAGEMENT OF FOREIGN ECONOMIC ACTIVITY OF ENTERPRISES. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(10), 75-80.
14. Alimova, S. A., & Shavkatovich, P. S. (2022). THE ROLE OF FOREIGN INVESTMENT IN ENSURING THE FINANCIAL SUSTAINABILITY OF THE ECONOMY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(3), 359-364.
15. Abidovna, A. S. (2023). Special directions of tourism development in Bukhara region: problems and solutions. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 21, 51-55.
16. Abidovna, A. S. (2024). "PERSONNEL MANAGEMENT" AND "HUMAN RESOURCE MANAGEMENT": HISTORY OF ORIGIN, ESSENCE AND RELATIONSHIP OF CONCEPTS. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 336-343.
17. Alimova, S. O. FEATURES OF THE STRATEGIC MANAGEMENT SYSTEM OF INDUSTRIAL ENTERPRISES.
18. Alimova, S. (2024). THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM. *Modern Science and Research*, 3(2), 385-390.